O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-MAY*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-may oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida shahar korxonalari tomonidan 35,8 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 108,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (77,9 %)ni  hamda ishlab chiqarish hajmi 27,9 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,6 % ga o’sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 15,6 % ga, hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 14,1 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 13,7 % ga, pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,8 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-may oylarida, % da)*




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**



| Neft | Shag‘al | Chaqiq tosh |
|---|---|---|










## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 275,4 | 266,0 | -9,4 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 14 824,1 | 14 952,2 | 128,1 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 316,9 | 314,6 | -2,3 |
| **Chaqiq tosh** *t.* | 104 452,3 | 51 212,6 | -53 239,7 |
| **Shag’al** *t.* | 12 076,2 | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,9 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
**(yanvar-may oylarida, % da)**







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 9,9 % ni (2021- yilning yanvar-may oylarida – 12,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 22,4 % (21,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 29,2 % (29,1 %) va quyi texnologiyalisi – 38,6 % (37,4 %)ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**




**O‘rta-quyi texnologiyali**




**Quyi texnologiyali**




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim

tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,7 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 10,4 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,6 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,2 % (2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,8 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5107,8 tonna makaron va shunga o’xshash un mahsulotlari ( 18,0 % ga oshgan), 31,7 mln litr pivo (11,7 % ga oshgan), 3,0 mln litr uzum vinosi (7,1 %) hamda 23,6 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (22,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Margarin va yormalar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



## Tamaki mahsulotlari




## Paxta kalavasi




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming tonna.* | 30,6 | 23,6 | -7,0 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 23,0 | 15,7 | -7,3 |
| **Margarin va yormalar** *ming tonna.* | 2,2 | 1,4 | -0,7 |
| **Pivo –** *mln litr* | 28,3 | 31,7 | 3,3 |
| **Traktorlar -** *dona* | 173,0 | 73,0 | -100,0 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar -** *ming dona* | 236,1 | 238,5 | 2,4 |
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar,** t. | 6 205,0 | 6 406,0 | 201,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 791,6 | 848,6 | 57,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-may oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 73 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 42,2 % ga ko’paygan.

**Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,**
*yanvar-may oylarida*

***miqdori dona***




***o‘sish sur’ati, % da***




## Toshkent shaharda yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*yanvar-may oylarida, dona*



"Volkswagen Caddv"



## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-may)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida metallurgiya sanoati ulushi 9,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 72,6 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,4 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 124,2 % va ishlab chiqarish hajmi 3726,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,2 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 18,5 % ga ko’paydi va ishlab chiqarish hajmi 1286,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,8 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 26,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6213,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-may oylarida)*









Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 10,7 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2506,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-may oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 130,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 18,7 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1989,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.









## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-may oylarida)*









2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 95,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 396,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-may oylarida)*

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 5,2 % ga ko’paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 872,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI*
*% da*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-may oylarida)*

*FHI*
*% da*







2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 52,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 44,2 % ga ko’paygan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 90,8 mlrd.

so‘mni tashkil etdi.

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish**

*(yanvar-may oylarida)*

***FHI***
***% da***






2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 224,7 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 1377,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish**

*(yanvar-may oylarida)*

2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plast-massa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi 127,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1351,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-may oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,6 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,6 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,1 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-may oylarida, % da)*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 127,3 | 173,5 | 46,2 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 7025,9 | 6311,3 | -714,6 |
| **Elektroenergiya uzatish bo’yicha xizmatlar,** *mln so ‘m.* | 327,9 | 327,7 | -0,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-may oylarida*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,5 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-may oylarida, % da)*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 35,4 | 63,9 | 28,5 |
| **(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 189,2 | 115,5 | -73,7 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash, mlrd. so‘m** | 77,1 | 107,5 | 30,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 40,0 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 39,5 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 80,6 % ga o’shish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 14,8 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 127,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 41,5 % ni tashkil etdi.

| 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may |
|---|---|




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,3 % (2021- yil yanvar-may oylarida 6,0 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib 17,2 % ni, shuningdek, Sirg’ali tumani 15,0 % ni, Chilonzor tumani 12,1 % ni hamda Olmazor tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida shaharda o‘sish sur’ati (107,7 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chilonzor (182,0 %), Shayxontoxur (177,6 %), Yangihayot (161,0 %), Yakkasaroy (145,2 %), Mirzo Ulug’bek (138,9%), Sirg’ali tuman (134,1 %) tumanlarida hamda Mirobod tumanida (132,7 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2022-yilning yanvar-may oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
|  | **14 836,9** | **100** | **127,8** |
| | **Toshkent shahri** | | |

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* | | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
|  | **1187,7** | **8,0** | **100,1** |  | **1138,2** | **7,7** | **101,2** |

| Uchtepa | | | Bektemir | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| 585,4 | 3,9 | 134,1 | 666,6 | 4,5 | 138,9 |
| Yunusobod | | | Mirzo Ulug’bek | | |
| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| 976,3 | 6,6 | 132,7 | 743,0 | 5,0 | 177,6 |
| Mirobod | | | Shayxontoxur | | |
| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| 1401,4 | 9,4 | 117,0 | 2225,2 | 15,0 | 134,1 |
| Olmazor | | | Sirg’ali | | |
| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| 733,9 | 4,9 | 145,2 | 2551,6 | 17,2 | 107,9 |
| Yakkasaroy | | | Yashnobod | | |
| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| 826,9 | 5,6 | 161,0 | 1800,9 | 12,1 | 182,0 |
| Yangihayot | | | Chilonzor | | |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,1 % shuningdek, Chilonzor 14,5 %, Uchtepa tumani 10,2 % ni, Mirobod tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-may oylarida*

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 8767,6 | 100 | 130,4 |
| Toshkent shahri | | |

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|---|---|
| 896,9 | 10,2 | 98,4 | 284,3 | 3,2 | 123,1 |
| Uchtepa | | | Bektemir | | |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yunusobod | 304,7 | 3,5 | 147,4 | Mirzo Ulug’bek | 497,1 | 5,7 | 132,2 |
| Mirobod | 744,6 | 8,5 | 114,7 | Shayxontoxur | 634,3 | 7,2 | 202,8 |
| Olmazor | 636,9 | 7,3 | 109,3 | Sirg’ali | 547,0 | 6,2 | 113,9 |
| Yakkasaroy | 524,4 | 6,0 | 145,1 | Yashnobod | 1760,3 | 20,1 | 108,1 |
| Yangihayot | 666,8 | 7,6 | 178,8 | Chilonzor | 1270,3 | 14,5 | 208,2 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirg’ali tumaniga to‘g‘ri kelib 30,2 % ni, shuningdek, Bektemir tumani 15,7 % ni, Olmazor tumani esa 14,1 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-may oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 5438,7 | 100 | 129,6 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Uchtepa | 290,8 | 5,3 | 105,9 | Bektemir | 853,9 | 15,7 | 95,5 |
| | Mlrd. | Ulushi | O‘sishi | | Mlrd. | Ulushi | O‘sishi |

| | so‘m | % da | % da | | so‘m | % da | % da |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 247,3 | 4,5 | 129,7 | | 169,6 | 3,1 | 163,1 |
| | Yunusobod | | | | Mirzo Ulug’bek | | |
|  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| | 231,7 | 4,3 | 267,9 | | 79,5 | 1,5 | 112,5 |
| | Mirobod | | | | Shayxontoxur | | |
|  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| | 764,5 | 14,1 | 124,3 | | 1642,1 | 30,2 | 145,4 |
| | Olmazor | | | | Sirg’ali | | |
|  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| | 209,5 | 3,9 | 145,3 | | 259,2 | 4,8 | 152,1 |
| | Yakkasaroy | | | | Yashnobod | | |
|  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| | 160,1 | 2,9 | 113,8 | | 530,6 | 9,8 | 141,2 |
| | Yangihayot | | | | Chilonzor | | |

## Toshkent shahri hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-may oylarida*

|  | Mlrd. so‘m | | | Ulushi % da | | O‘sishi % da | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 35 794,5 | | | 100,0 | | 108,1 | |
| | Toshkent shahri | | | | | | |
|  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |  | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
| | 1796,7 | 5,0 | 98,8 | | 2087,7 | 5,8 | 105,5 |
| | Uchtepa | | | | Bektemir | | |
| | Mlrd. | Ulushi | O‘sishi | | Mlrd. | Ulushi | O‘sishi |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yunusobod | 1584,0 | 4,4 | 112,1 | Mirzo Ulug’bek | 1987,6 | 5,6 | 100,2 |
| Mirobod | 2833,8 | 7,9 | 104,0 | Shayxontoxur | 2510,7 | 7,0 | 108,2 |
| Olmazor | 2422,3 | 6,8 | 100,2 | Sirg’ali | 4277,2 | 11,9 | 112,2 |
| Yakkasaroy | 2472,1 | 6,9 | 112,1 | Yashnobod | 8864,0 | 24,8 | 94,6 |
| Yangihayot | 1416,7 | 4,0 | 104,3 | Chilonzor | 3541,7 | 9,9 | 142,3 |

## Toshkent shahri hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

| Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi, *% da* | | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chilonzor (182,0 %), Shayxontohur (177,6 %), Yahgihayot (161,0 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (145,2 %) qayd etildi.

**Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,8 % ) hamda Sirg’ali (11,9 %), Chilonzor (9,9 %), Mirobod (7,9 %) va Yakkasaroy (6,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangihayot (4,0 %) hamda Yunusobod (4,4 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (42985,7 ming so‘m), Yashnobod (32000,1 ming so‘m) hamda Sirg’ali tumanida (30803,3 ming so‘m) shaharda o‘rtacha daraja ko‘rsatkichidan (6734,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shahar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so‘mdan yuqori ko’rsatkich Bektemir tumanida – 23435,6 ming so‘mni, Sirg’ali tumanida – 16025,1 ming so‘mni, Yashnobod tumanida – 9211,5 ming so‘mni, Mirobod tumanida –6762,9 ming so‘mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*2022- yilning yanvar-may oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Toshkent shahri | 12 696,0 | 5262,5 |
| Uchtepa | 6370,6 | 4211,0 |
| Bektemir | 42985,7 | 23435,6 |
| Yunusobod | 4456,4 | 1646,9 |
| Mirzo Ulug'bek | 6466,3 | 2168,8 |
| Mirobod | 19630,1 | 6762,9 |
| Shayxontohur | 7144,6 | 2114,2 |
| Olmazor | 6352,7 | 3675,5 |
| Sirg'ali | 30803,3 | 16025,1 |
| Yakkasaroy | 20129,5 | 5975,8 |
| Yashnobod | 32000,1 | 9211,5 |
| Yangihayot | 9665,4 | 5641,2 |
| Chilonzor | 13435,3 | 6831,4 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022- yilning yanvar-may oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8,1 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 61,7%), Yunusobod (44,9 %), Chilonzor (39,6 %), Mirzo Ulug'bek (37,6 %) hamda Bektemir (36,3 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Yashnobod (13,1 %), Mirobod (24,4 %), Uchtepa (26,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- may holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,1 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 12,9 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,2 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,5 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,7 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Mirzo Ulug’bek tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-may oylarida shahardada 719 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 97 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 13,5 %) Olmazor tumanida, 77 tasi (10,7 %) Uchtepa tumanida, 72 tasi (10,0 %) Chilonzor tumanida, 70 tasi (9,7 %) Yashnobod tumanida, 70 tasi (9,7 %) Yunusobod tumanida hamda 61 tasi (8,5 %) Mirzo Ulug’bek tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**

*2022- yil 1- iyun  holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 079 ta), Chilonzor (1 969 ta), Uchtepa (1 869 ta), Yunusobod (1 703 ta) hamda  Shayxontohur  (1 409 ) tumanlarida  qayd etildi.

**Toshkent shahrida  eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida  eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-iyun holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (559 ta), Yangihayot (605 ta), Mirobod (940 ta), Sirg’ali (1002 ta), Yakkasaroy (1 222 ta), Yashnobod (1 387 ta), Mirzo Ulug’bek (1392),Shayxontohur (1409), Yunusobod (1703), Uchtepa (1859) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*